

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SARVINOZ SAMADOVA**

**SIYOSATSHUNOSLIKNI  
O‘QITISH METODIKASI**

**O‘quv qo‘llanma**

60310700 – Siyosatshunoslik bakalavriat  
yo‘nalishi talabalari uchun.

Toshkent – 2024

UO‘K 378.147(075)

KBK 74.266.6ya72

S 19

**Samadova, Sarvinoz Samad qizi**

Siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi [Matn]. O‘quv qo‘llanma. S.Samadova. – T.: “Afzalzoda books” nashriyoti, 2024-y. – 204 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanma davlat ta’lim standartlari va Buxoro davlat universitetida “Siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur asosida tayyorlangan bo‘lib, unda siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi fanining ob‘yekti, predmeti, siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasining umumiy masalalari, siyosiy ta’lim tizimi, siyosatshunoslikni o‘qitish jarayonida muammoli ta’lim, siyosatshunoslik fani bo‘yicha o‘quv-me‘yoriy hujjatlarni tayyorlash, siyosiy ta’limda zamonaviy o‘qitish metodlari, innovatsion ta’lim texnologiyalari, siyosatshunoslikni o‘qitishning siyosiy, madaniy, tarbiyaviy jihatlari, siyosiy fanlarni o‘qitishda Yevropa tajribasi kabi dolzarb masalalar o‘z ifodasini topgan.

O‘quv qo‘llanma 60310700 – Siyosatshunoslik bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

M u a l l i f:

**S.S.Samadova** – Buxoro davlat universiteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

T a q r i z c h i l a r:

**F.M.Bafoyev** – Buxoro muhandislik texnologiyalari instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsenti, s.f.n.

**S. S. Raupov** – Buxoro davlat universiteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasida professori, t.f.n.

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 2024 yil 11-noyabrdagi 711-U-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan. Qayd qilish raqami 711-25.

ISBN 978-9910-8981-0-5

© S.Samadova, 2024

© “Afzalzoda books” nashriyoti, 2024

## KIRISH

Hozirgi yangilanayotgan O‘zbekistonda ijtimoiy hayotga yangicha munosabatlar va yangicha qarashlar shakllanmoqda. Bu bevosita keng miqyosli islohotlar oqimida shakllanayotgan siyosiy ong va siyosiy tafakkur orqali yuz berayotgan jiddiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Jamiyatda tub yangilanishlarni amalga oshirish, butunlay yangi siyosiy qarashlar va siyosiy rejimni qaror toptirish jarayonlarida siyosiy tafakkurning yangi yo‘nalishlari yuzaga keladi.

Mamlakatimizda siyosiy fanlarni rivojlantirish, ushbu sohadagi kadrlarni tayyorlash, ma‘muriy islohotlarni o‘z nihoyasiga yetkazishda siyosiy fanlarning o‘rnini katta ahamiyatga ega. Hozirgi davrda zamonaviy siyosatshunoslik alohida kasblarning yo‘nalishi bo‘lib, undan milliy manfaatlarni hisobga olib yondashadigan, yuqori malakali mutaxassis bo‘lish talab etilmoqda.

Siyosatshunos kadrlarni tayyorlash va ularning malakalarini oshirish bo‘yicha ishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019 yil 29 yanvardagi PQ-4139-son “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroridan keyin o‘zining yangi bosqichini boshladi.

Mamlakatimizning bir qancha oliy o‘quv yurtlarida siyosatshunoslik yo‘nalishida kadrlar tayyorlanadi. Jumladan, 2022-2023 o‘quv yilida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Buxoro davlat universtiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Toshkent davlat transport universitetilarida siyosatshunoslik (60310700) bakalavriat yo‘nalishida o‘qishga qabul kvotalari ajratildi.

Jahonda yuz berayotgan global siyosiy o‘zgarishlar, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bo‘lajak siyosatshunos mutaxassislardan yangi malakaviy talablarni o‘zlashtirishni talab etmoqda.

Siyosatshunoslik demokratik siyosiy-ma‘rifiy vazifani bajarish jarayonida asosiy gumanistik qadriyatlar, avvalo, har bir shaxsning erkinligi va sha‘ni, uning tabiiy ajralmas huquqlarini e‘tirof etadi. Siyosatshunoslik fani fuqaroga tegishli ijtimoiy tuzumni to‘g‘ri baholash, uning davlatdagi o‘z o‘rni va rolini, huquq va majburiyatlarini anglashda yordam beradi. Natijada fuqaro boshqalarning huquq va

manfaatlarini hurmat qilgan holda o'z manfaatlarini himoya qila olishga, umumiy muammolarni jamoa bilan hal qilishga o'rganadi. Shuningdek, fuqaroda demokratik tartibotga va uni ta'minlovchi davlat va ijtimoiy institutlarga nisbatan hurmat tuyg'usi shakllanadi.

**SARVINOZ SAMADOVA**

**SIYOSATSHUNOSLIKNI  
O‘QITISH METODIKASI**

**O‘quv qo‘llanma**

Muharrir M.Talipova  
Tex. Muharrir N.Niyazova  
Sahifalovchi B.Haydarov

Bosishga ruxsat etildi 28.11.2024  
Qog‘oz bichimi 60x84. TIMES garniturasini,  
Shartli bosma tabog‘i 12,75. Nashr tabog‘i 10.9  
Adadi 100. Buyurtma № 19-10/238

“Afzalzoda books” OK nashriyoti  
100071, Toshkent sh., Durbek, 2-tor ko‘chasi

“Impress media” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
100150, Toshkent sh., Qushbegi, 6